

J.Sh. Rabbimov

1- QarMII “Geologiya va konchilik ishi” kafedrasи assistenti

E-mail: rabbimov1933@gmail.com

Annotatsiya. Hisobot ishlar vaqtida yetarlicha to‘liq geologik kesim bo‘yicha ma’lumotlar Ilim, Shurtan, shimoliy Shurtan, Zafar, Shakarbuloq maydonlarida ochilgan sanoat miqyosidagi uglevodorod uyumlar bo‘yicha to‘pladi. Izlov – qidiruv burg‘ilash ishlari natijasida regional maxsuldar tuz osti va tuz usti oksford-kimridj karbonat yotqiziqlar struktura tuzilishi keskin nomuvofiqliigi aniqlandi.

Katil so‘zlar: grafik, kinematik, sinfazlik, model, apraksimatsiya, chegara, seysmik yozma, vaqtli kesim.

Abstract. The report gathered information on a sufficiently complete geological cross-section of industrial-scale hydrocarbon deposits discovered in the fields of Ilim, Shurtan, northern Shurtan, Zafar, Shakarbuloq. As a result of exploratory drilling, it was found that regionally productive sub-salt and over-salt Oxford-Kimridge carbonate deposits are structurally inconsistent.

Key words: graphic, kinematic, synphasic, model, approximation, limit, seismic record, time section.

Kinematik tuzatishlar VSP yordamida olingan effektiv tezliklarni hisobga olgan holda 1000 m qadam bilan DVELT, DSUMTK, TVELTS va VESP dasturlari yordamida bajarildi.

Kinematik tuzatma oldingi ishlar natijasida aniqlangan tezliklar grafigi asosida hisoblanadi. Kinematik tuzatmalar OGT seysmogrammalariga kiritiladi. Uning maqsadi bir karrali qaytgan to‘lqinlar sinfazlik o‘qlarini $t_0 = \text{const}$ chiziqlariga o‘zgartirish kiritishdir, bu yerda t_0 -qaytarish chegara normal holda ikki marta tarqalgan to‘lqinning vaqtini (ikki karrali vaqtini).

O‘rganilayotgan kesimdagi chegaraning OGT oralig‘ida tekis chegaralarga ega bo‘lgan bir jinsli model bilan apraksimatsiyalanganda (almashtirilganda) kinematik tuzatma quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$T(t_0, x) = \sqrt{t_0 + \frac{x^2}{2v_{0\Gamma T}^2 \cdot t_0}} - t_0$$

Amalda $T(t_0, x)$ taxminiy qiymati $T(t_0, x) =$ formula bo‘yicha hisoblanadi, bu yerda $/cos\varphi$ -mavhum tezlik kinematik tuzatmani hisoblash aniqligini aniqlaydi;

φ - chegaraning yotish burchagi.

Samarali tezlik va φ burchak qiymatlari taxminiy aniq bo‘lgani uchun kinematik tuzatma $T_k(t_0, x)$ xatolar bilan hisoblanadi. Shuning uchun kinematik tuzatmani hisoblash ikki bosqichda boshlang‘ich kinematik tuzatmalar muhim modeli to‘g‘risida ma’lum bo‘lgan boshlang‘ich dalillari asosida hisoblanadi. Bunda kinematik tuzatmalar yomon baholanadi. Seysmik yozmalar kinematik tuzatmalar hisobotida ishtirok etmaydi.

Ikkinci bosqichda boshlang‘ich kinematik tuzatmalar tuzatiladi. Bunda seysmogrammalar ishlataladi va giperbolalar yelpig‘ichi bo‘yicha har xil vaqtli egri chiziqli tahlili asosida muvofiq tezlik egri chizig‘i va aniq kinematik tuzatmalar aniqlanadi. Tuzatishning boshlang‘ich bosqichida VUEL va VESP dasturlari yordamida berilgan vaqt oralig‘ida tezliklar miqdori baholanadi. Olingan natijalar bo‘yicha OGT godografini musbat va manfiy etishlari qatori aniqlanadi. To‘lqin maydoni murakkabligini va qaytarish gorizontlari katta burchak bilan yotganligini hisobga olgan holda bundan keyin tezlik modelini tanlash TSUMT va TSUMTS dasturlari yordamida bajariladi. Dasturlar natijasida aniq qonunlarda vaqtli kesimlarning qismlar variantlari ishlab chiqiladi. Ular har xil tezlik qonunlariga chiqarilgan vaqtli kesimlarda tahlil qilinadi va baholanadi. Ular bo‘yicha signallar to‘plaminini olish uchun kerak bo‘lgan aniqlikda tezlik grafigi tanlab olinadi. Qayta ishlashda har xil chegaralangan bazalarda OGT kesimlarining jamini olish variantlari sinab ko‘riladi va muvofiq jamini so‘ngi bosqichida hamma OGT vaqtli kesimlari filtrланади, natijada to‘lqinlar maydoni

yaxshi ko‘rinarli bo‘lib chiqadi. OGT vaqtli kesimlarida haqiqiy geologik kesimni akslantirish uchun migratsiya, teskari filtrlash o‘tkaziladi.

Statik va kinematik tuzatishlar korreksiyasi va hamma profillar bo‘yicha optimal tezlik chizig‘ini tanlash natijasida OGT yakuniy vaqtli kesimi olinadi. Bunda doim xalaqit beruvchi to‘lqinlarni susaytirish uchun ikki o‘lchamli filtrlash FKFIL 100% qo‘llaniladi. Etalon profillar bo‘yicha 18 variantdagi OGT turli tezlikdagi kesimini olgan (simmetrik, to‘g‘ri va to‘qnash tizim) to‘g‘ri vertikal spektrlarini qabul qilish past tezlikdagi anomal to‘lqinlarni to‘laqonli o‘rganish va hosil qilish imkonini beradi.

Seysmik ma’lumotlar o‘rgangilgan maydonni tavsiflaydi, asosiysi qo‘yilgan vazifani yaxshi sifatli va maqsadli bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Л. Хаттон, М. Уэрдингтон, Дж. Мейкин: «Обработка сейсмических данных». М.: Мир, 1989г.
2. Шериф Р., Гелдарт Л. Сейсморазведка. Том 2, М., «Мир», 1987.
3. Атлас месторождений нефти и газа Узбекской ССР. Ташкент, ИГИРНИГМ.
4. Таль-Вирский Б.Б. Геофизические поля и тектоника Средней Азии. Монография. М., Недра, 1982.
5. Rabbimov, J. (2022). UGLERODLI PO ‘LATLARNING KONSTRUKTIV MUSTAHKAMLIGINI VA KORROZIYAGA BARDOSHLILIGINI OSHIRISH. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 227-234.
6. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Bo‘riyev, S. (2022). Murodtepa maydonida izlov-qidiruv ishlarini baholash tamoyillari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 246-250.
7. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., Bo‘riyev, S., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING GIDROGEOLOGIK TUZILISHI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 242-245.
8. Турдиев, Ш. Ш. У., Комилов, Б. А. У., & Раббимов, Ж. Ш. (2022). АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПРОБЛЕМЫ РАЗРАБОТКИ

ПОДГАЗОВЫХ НЕФТЯНЫХ ЗАЛЕЖЕЙ. *Universum: технические науки*, (11-3 (104)), 58-62.

9. Shahboz, S., Komilov, B., & Rabbimov, J. (2022). YO ‘LDOSH GAZLARNI TOZALASH, SUYUQLIK, GAZNING HARORATI VA YENGIL UGLEVODORODLARNI UTILIZATSIYA QILISHNING ZARURLIGI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 677-680.
10. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). QIZOTA (YOSHLIK II) MAYDONINING STRATIGRAFIYASI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 502-504.
11. Turdiyev, Sh., Komilov, B., Rabbimov, J., & Azimov, A. (2022). Suyultirilgan uglevodorod gazlarini olishning resurslari va manbalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 505-509.
12. Shermamat o‘g‘li, T. S., Asqar o‘g‘li, K. B., & Karim o‘g‘li, K. O. (2022). STG (LNG) TABIIY GAZDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIDIR. *Journal of new century innovations*, 10(2), 35-37.
12. Shermamat o‘g‘li, T. S., Shodmonkulovich, R. J., & Rustamovich, B. A. (2022). SUYULTIRILGAN TABIIY GAZNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA UNI O ‘ZBEKISTONDA QO ‘LLASHNING IMKONIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 10(2), 38-41.
13. Rabbimov, J. S. (2022). QATLAMDAN KELAYOTGAN OQIMNI JADALLASHTIRISH MAQSADIDA QATLAMGA KISLOTALI ERITMA BILAN ISHLOV BERISH (MURODTEPA MAYDONI MISOLIDA). *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 373-378.
14. SHermamat o‘g‘li T. S. et al. NEFT GAZLARIDAN SUYULTIRILGAN UGLEVODORODLARNI ISHLAB CHIQARISHNI TADQIQOTLASH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 67-74.
15. Fozilov, S. F., Fozilov, X. S. O‘., Rabbimov, J. Sh., & Raxmatov, A. Q. O‘. (2022). Neft moylarining mahalliy tabiiy adsorbentlar asosida tozalash va ulardan mastikalar olish. *Science and Education*, 3(10), 285-288.

16. Rabbimov, J. Sh, and B. A. Komilov. "GAZNI TAYYORLASH QURILMASI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 137-144.
17. Sultonov, S. A., & Rabbimov, J. S. (2024). Tabiiy gazni oltingugurtli birikmalar va karbonat angidrit gazidan tozalash. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 122-126.
18. Rabbimov, J. Sh, and B. A. Komilov. "GAZSIMON FRAKSIYALARINI KONDENSATSIYASI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 30.2 (2023): 128-131.